

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 22 - sentabr

220-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 73-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosarining 2023-yil 5-sentyabrdagi 05-20/15358-son bilan tasdiqlangan Dasturi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 15-sentyabrdagi RS/12-02/3759-sonli xatini inobatga olib,

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joriy yilning 6-9 sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasidagi davlat chegarasini demilitatsiya va demorkatsiya qilish masalalari bo'yicha O'zbekiston-Turkmaniston ishchi guruhlarining uchrashuvi dastur asosida belgilangan tadbirlarga sarflangan 36 692 625 so'm (o'ttiz olti million olti yuz to'qson ikki ming olti yuz yigirma besh so'm) pul mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) O'zbekiston-Turkmaniston ishchi guruhlarining uchrashuvi dastur asosida belgilangan tadbirlarga sarflangan mablag'larni qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi boshqarmasi (B.Utambetov) ajratilgan mablag'ning qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi A.Ismailov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov